

MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA TARBIYACHI HODIMNING BOLA FAOLYATIDAGI RO'LI VA TARBIYACHI MAHORATI.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8310677>

Muradovna To'pajon

Urganch davlat universiteti maktabgacha ta'lism yo'nalish 2- bosqich talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolamda maktabgacha ta'lism jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lism-tarbiyasining shaxsga yo'naltirilgan modeli ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning maqsadi – bu shaxsni muayyan andoza asosida o'zgartirish va tazyiq o'tkazishni emas, u qanday bo'lsa, shunday qabul qilishni taqozo etadi. Pedagog tomonidan tanlab olingen ta'lism uslublari intellektual jarayonlarning shakllanishiga, masalaning yechimiga ijodiy yondashishga, tashabbuskorlikka, mustaqillikka va masuliyatga, bolalarni mashq orqali o'z faoliyatini boshqarishga o'rgatish to'g'risida so'z boradi.

Kalit so'zlar

pedagog, ta'lism, tarbiya, maktabgacha ta'lism, interfaol, bola, fasilitator.

Maktabgacha ta'lism tizimida tarbiyachi hodimning bola faolyatidagi ro'li va tarbiyachi mahorati o'zaro bog'liq va muhim mavzulardir. Tarbiyachi hodimlar, bolalarning o'quv jarayonida muhim o'rinn egallaydilar.

Tarbiyachi hodimning bola faolyatidagi roli:

O'quvchilarga yordam berish: Tarbiyachi hodimlar, bolalarni o'quv jarayonida qo'llab-quvvatlash, ularning talabalarini tushunish va ularga yordam berishda muhim rol egallaydilar. Ular o'quvchilarning qiyinchiliklari, talabalarining iste'dodlari va g'amxo'rliklari bilan boshqarish uchun ko'plab strategiyalarni qo'llashadi.

Ko'maklashuv: Tarbiyachi hodimlar o'quvchilarga ko'maklashuv amaliyotlarini takomillashtirish uchun hammasiga imkoniyat beradilar. Ular o'quvchi maslahatlari, dars dasturini tuzishda yordam beradi va ularning shaxsiy rivojlanishiga e'tibor beradilar.

O'quvlarni baholash: Tarbiyachi hodimlar, bolalar o'rtasidagi taqqoslash jihatidan ham baholash jarayonini boshqaradilar. Bu baholashlar, o'quvchilarning o'zlashtirishlari, ma'lumotlarni oldindan bilish darajalari va o'quv dasturlarida qatnashish darajalari bilan bog'liq bo'ladi.

Tarbiyachi mahorati:

Pedagogik tushuncha va metodlar: Tarbiyachi hodimlar pedagogik tushunchalarga ega bo'lishi kerak. Ular o'quv jarayonini nazorat qilish uchun pedagogik usullarni tushunishi va ulardan foydalanishni bilishi zarurdir.

Bolalar psixologiyasi: Tarbiyachi hodimlar bolalar psixologiyasini yaxshi tushunishi kerak. Ular qo'shimcha yordam beradi, maslahat beradi va muhim masalalar yuzasidan bolani yaxshi tushuntirishga ko'maklashadilar.

Komunikatsiya va qo'llab-quvvatlash: Tarbiyachi hodimlar o'quvchilar bilan samarali aloqada bo'lishlari kerak. Ular kelajakdagi maqsadlarga erishish uchun bolalar bilan hamkorlikda ishslashni bilishi zarurdir.

Bola rivojlanishining monitoringi: Tarbiyachi hodimlar bolaning rivojlanishi haqidagi ma'lumotlarni to'plab, monitoring qilishi lozim. Bu, o'quvchining o'zlashtirish darajasi, ma'lumotlarni tushunish darajasi va shaxsiy rivojlanishiga oid ma'lumotlarni yig'ishni o'z ichiga oladi.

Tarbiyachi hodimning bola faolyatidagi ro'li va mahorati, ta'lim tizimida bolalarning yaxshi o'qituvchanligini va rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Tarbiyachi hodimlar, bolalar bilan samarali ishslash uchun pedagogik usullarni tushunishi va ularni rivojlantirishda ko'maklashuv amaliyotlarini takomillashtirishadi.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan har bir pedagog va tarbiyachilar bolalar kamolotini ta'minlash o'z oldilaridagi muhim vazifa ekanligini teran his qilishlari lozim. Tarbiyachi va pedagoglar tashkilotdada turli xil faoliyat va ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etadilar. Bu jarayonda bolalar uchun (kopfort) qulay va shinam interfaol muhit yaratishi yuqorida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda zarur omil bo'lib xizmat qiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalar faoliyati uchun interfaol muhit tashkil etish negizida insonparvarlik pedagogikasi tamoyillariga tayanish talab etiladi. Birinchi navbatda tarbiyachi bola shaxsiga tahdid qilmasligi zarur. Bunda bola va tarbiyachi o'rtasida o'zaro do'stlik, mehr-muhabbat o'rnatilishi talab etiladi. Tarbiyachi bolalarning ehtiyojlarini anglay olishi va ularni inobatga olishi lozim. Mashg'ulotni tashkil etish va o'tkazish jarayonida tarbiyachi va bolalar hamkorlikda ishlaydilar. Bu esa bolalarda faollikni, ma'suliyatni, mustaqillikni rivojlantiradi ayniqsa ayrim bolalarda shaxsiy ijodkorlik namoyon bo'ladi. Tarbiyachi agarda sof psixologik muhit yaratmasa yoki bolalarni shaxs sifatida hurmat qilmasa ta'lim-tarbiya berishda qo'yilgan maqsadga erishishda qiyinchiliklar ro'y beraveradi. Bolaning ta'lim olish faoliyatida qulay muhit yaratilsa ularning psixik va jismoniy jihatdan sog'lom bo'lishlari ta'minlanadi. SHuningdek, bolalarda ijobiy hissiy holat ro'y beradi, ular maktabgacha ta'lim tashkilotidagi barcha jarayonlardan qoniqish hosil qiladilar, shundagina "bog'chaga bormayman" degan harxashani unutadilar. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari qulay interfaol muhitni qo'yidagicha tizimda yaratishlari lozim. 1. Psixologik-ruhiy 2. Intellektual-aqliy 3. Jismoniy Agarda yuqorida keltirilgan tizim asosida qulay interfaol muhit yaratilsa samarali natijaga erishish mumkin. Chirchik, Uzbekistan 720 International Conference Yuqorida keltirilgan interfaol muhit tizimlarini tahlil qilamiz. Psixologik qulay muhit yaratish- bolaning psixik individual xususiyatlarini hisobga olish va tashkiliy, kommunikativ sharoit bilan bog'liq ravishda amalga oshiriladi. Bolalar

o'zlarini ruhan erkin va qulay his qilsalar ularda hursandik, qoniqish, yuqori kayfiyat yuzaga keladi. Bu holat bevosita ta'lism jarayonidagi (intellektual qulaylik), muloqot, va boshqa sub'ektiv vaziyatlar bilan bog'liq bo'ladi. Ijobiy hislarni yuzaga kelishida bolaning faoliyat motivatsiyasi, xulqavtori, atrof-muhit va sub'ektiv jarayonlar sabab bo'ladi. Psixologik qulay muhit yaratilishda birinchi galda interfaol muhit vositalari va bolalar o'rtasida shaxslararo munosabat muhim o'rinn tutadi. "Tarbiyachi-bola" munosabati uchun hamkorlikdagi faoliyat ya'ni ijobiy hissiy holatlar, ezungulik, bag'rikenglik asosidagi muloqot qilish taqozo etiladi. Mana shu jarayonda bola va tarbiyachining bir-birlarini ijobiy qabul qilishlari, o'zaro bir-birini tushunishi, tinglashi va o'zaro ishonch asosiy omil bo'ladi. Tarbiyachi uchun zarur bo'lgan malaka va ko'nikma bu bola ruhiyatini his qilish, uning hattiharakatlarini to'g'ri qabul qilish asosan bolani sevishi zarur. Tarbiyachi va bolaning o'rtasida o'zaro ta'sir ko'rsatishdagi psixologik jihatlardan biri, shaxslararo ta'sirdir. Tarbiyachi ta'lism jarayonining boshqaruvchisi va tashkilotchisidir. U shunday vaziyat yaratishi kerakki, bolalar kayfiyati, holati va ruhiyatini qo'llab quvvatlasin. Pedagogik ta'sir ko'rsatish bevosita maktabgacha ta'lism tashkilotidagi jarayonlar qanday tashkil etilganiga bog'liq bo'lib, u bolalarning qiziqish va intilishlarini ta'minlashi lozim. Tarbiyachi ta'lism-tarbiya jarayonining quruvchisi va dizayneri bo'lib, bola shaxsini har tomonlama rivojlanishini o'z ma'suliyatiga olishi kerak. Maktabgacha ta'lism tashkilotida qulay (komfort) yaratishning muhim jihatlaridan biri, bolani individual ravishda uning qiziqishi, maqsadi, imokoniyatlari va to'siqlarni yengib o'tishida qo'llab quvvatlashdir. Tarbiyachi yuqori kasbiy mahoratga ega bo'lsagina, bolaning yutuqlarga erishishi yoki ijobiy natajalarni qo'lga kiritishi, o'z-o'zini boshqarishga, muloqotchanlikka o'rgata oladi. Tarbiyachi ta'lism-tarbiya berishda fasilitator vazifasini ham bajaradi. Ya'ni bolani qo'llab quvvatlaydi, yordam ko'rsatadi. «Fasilitator» termini psixologiyada yengillashtirish, biror shaxsni faoliyatini optimal darajaga olib chiqishda ko'mak berishdir. Ta'lism jarayonida tarbiyachining fasilitatorlik vazifasi bola bilan ijobiy muloqot o'rnatish, biron bir faoliyat bilan shug'ullanayotganda unga yordam berish va ruhan qo'llab turishdan iborat. Biroq amaliy tajribalarimiz shuni ko'rsatadiki, tarbiyachilar faol harakatlarni to'g'ri tashkil eta olmaydilar, bolalar ruhiyati, qiziqishi va ehtiyojlarini anglay olmaydilar, natijada bolalar bilan ijobiy muloqot o'rnatada olmaydilar, bor imkoniyatlar qo'ldan boy beriladi. Psixolog olim L.S.Vigotskiy "Rivojlanishning yaqin hududi" - bolaning kattalar bilan o'zaro aloqalari jarayonida erishiladigan va rivojlanayotgan shaxs tomonidan ular bilan birgalikdagi faoliyat jarayonida amalga oshiriladigan, biroq individual faoliyat doirasida namoyon bo'lmaydigan rivojlanish darajasi. Rivojlanishning yaqin hududiga yo'naltirilgan ta'lism rivojlanishning ilgarilab borishiga xizmat qiladi, xususan, rivojlanishning yaqin hududida joylashgan narsa muayyan yoshda o'zgaradi, takomillashadi va keyingi yoshdagagi bosqichda aktuallashgan rivojlanish darajasiga ko'tariladi. Bola matabda uning uzluksiz rivojlanishiga imkoniyat tug'diradigan faoliyat bilan shug'ullanadi. Bu faoliyat majoziy ma'noda boshi uzga

bir pog'ona ko'tarilish imkoniyatini beradi. Chunki rivojlanishdan oldinda borayotgan ta'limgina samaralidir. Ayni shu omil rivojlanishning yaqin hududidagi boshqa funktsiyalarining namoyon bo'lishiga xizmat qiladi. "Pedagogika ortga emas, bola rivojlanishining ertangi kuniga qarab yo'naliш olishi kerak" degan fikr bilan kattalar va bolalar o'rtasida o'zaro faol harakatni tashkil etish muhimligini ta'kidlaydi.

REFERENCES:

1. Sh.Mirziyoev. "2017-2021-yillarda mактабгача та'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qaror.T.: -2016. 29 dekabr.
2. "Ilk qadam" o'quv dasturi.2018
3. L.S.Vigotskiy "Rivojlanishning yaqin hududi 4. N. Azizzodjaeva. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. T.:2006.
5. B.Ziyomuhhammadov. Pedagogika: Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma.- T.:"Turon-Iqbol" .2006.-58-68 b